

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

TDSHU rektori



**60320100 – JURNALISTIKA: XALQARO JURNALISTIKA
BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA IJODIY
(KASBIY)
IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Tuzuvchilar: **Saliyeva M.K.** – TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası dotsenti, f.f.n.
Xodjayeva N.B. – TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası mudiri, PhD, dotsent.

Taqrizchilar: **Murotova N. F.** – Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti f.f.n., dotsent.
Alimov B. S. - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, f.f.d.

60320100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezoni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023 yil 22 iyun dagi 11 sonli majlisi qarori bilan tasdiqlangan

Kirish

60320100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur soha talab etadigan ijodiy qobiliyat, xorijiy tillarni o'rganish va bilishga qiziqishi, mustaqil fikrlash mahorati, xalqaro mavzularning yoritilishi, xalqaro miqyosda axborot uzatuvchi Xalqaro OAV tizimining shakllanishi va ko'rinishi, xalqaro axborot bozori va uning qonuniyatlari, OAV faoliyatining iqtisodiy asoslari, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar, muassislik va boshqaruv, media-biznes va unda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqadigan zamonaviy tendensiyalar, "Dunyoning axboriy xaritasi" "raqamli tengsizlik" yangi tushunchalar mazmunini anglashi va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir.

Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Xalqaro OAV tizimi haqida muayyan darajada qiziqish va dunyoqarashining mavjudligi;
- Zamonaviy tendensiyalar kabi muhim nazariy mavzularni bilishi
- Jahon OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV sohasini xabardorligi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish darajasi va chet tilida o'z fikrini og'zaki bayon qila olish ko'nikmasi;
- Xalqaro jurnalistikadagi asosiy tushunchalarni bilishi va boshqalar.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan **maksimal ball** miqdori - **93 ball**.

Ijodiy imtihonning **birinchi bosqichi**, ya'ni **ijodiy inshoni** baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan 66,6 foizi, ya'ni **62 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihonning **ikkinchi bosqichi**, ya'ni **og'zaki suhbat** jarayonidagi

savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning 33,3 foizi, ya'ni **31 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihon natijalari ikki bosqich to'liq yakunlangan kunning ertasiga e'lon qilinadi.

Birinchi bosqich ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ijodiy insho mavzulari xalqaro jurnalistika tizimida ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

- qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;

- ijodiy insho o'tkazilishi uchun 3 astronomik soat vaqt belgilanadi;

- ijodiy insho betlari muhrlangan 12 varaqli daftarga yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- ijodiy inshoning hajmi 5 betdan 10 betgacha deb belgilanadi;

- ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

- mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

- ijodiy insholar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

- tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

- mas'ul kotib yoki uning muovini ijodiy insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

- ijodiy inshoga quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

Ikkinchi bosqich abituriyentlarning xalqaro jurnalistika sohasiga qiziqishi, ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha 10(o'n) daqiqagacha vaqt belgilanadigan og'zaki suhbat bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- abituriyentning jurnalistika va jamiyat tuzilishi, matbuot erkinligi, jurnalistika prinsipi va funksiyalarining mohiyatini anglash hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari aniqlanadi;

- Xalqaro miqyosda sodir bo‘layotgan yangiliklar va turli sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo‘yicha savollar beriladi;

- O‘zbekiston va jahonda yuz berayotgan so‘nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy va boshqa sohalardagi o‘zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

- badiiy, publisistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so‘nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publisistika hamda jurnalistika sohasidagi bilimi baholanadi;

- xalqaro jurnalistika sohasidagi tasavvuri, xalqaro jurnalistlar va xalqaro OAV faoliyatidan xabardorligi;

- xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish darajasi va chet tilida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish ko‘nikmasi;

- suhbat davomida jurnalistika sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning mulohazaga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlarini aniqlanadi.

Abituriyentlar bu mavzulardagi savollarga javob berishga tayyorlanishlari uchun auditoriyada alohida vaqt berilmaydi.

Og‘zaki suhbat davomida so‘rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Yangi Konstitutsiyani bilasizmi?
2. Yangi Uzbekiston deganda siz qanday davlatni tushunasiz?
3. Referendumga qatnashdingizmi?, Referendum nimani anglatadi?
4. Gazeta olasizmi? maqolalar o‘qiganmisiz? Makola nima?
5. Makola yozganmisiz? Agarda maqola yozgan bo‘lsangiz birinchi maqolangiz qaysi mavzuda? (gapirib bering)
6. Jurnalistik faoliyatingizni qaysi yo‘nalishda tasavvur qilasiz (television journalist, radio journalist yoki bosma matbuotda faoliyat yuritish) tanlovingiz haqida tushuncha bering.
7. O‘zbekistonda chop etilgan qaysi gazetani bilasiz? (o‘zingiz o‘qidigan gazetangiz haqida ma‘lumot bering)
8. Internet Ommaviy axborot vositasining qanday turiga kiradi? (Elektron, Bosma)?
9. Jurnalist uchun Internetning afzalliklari haqida fikrlaringiz qanday? (gapirib bering).
10. Siz nega aynan jurnalistlik kasbini tanladingiz? Bu tanlov kimning ta‘sirida bo‘ldi?
11. Jurnalistik faoliyat to‘g‘risidagi tushunchangizni ifodalab bering.

12. Milliy OAV va xalqaro OAV o'rtasida qanday farqli jihatlar bor?
13. Ommaviy axborot vositalari tizimi deganda nimani tushunasiz?
14. Qaysi OAV turi (matbuot nashrlari, televidenie, radio, axborot agentliklari, internet) da faoliyat yuritishga ko'proq qiziqasiz? Buning sababi nimada?
15. Nega aynan xalqaro jurnalistika ta'lim yo'nalishida tahsil olmoqchisiz?
16. Jurnalistika yo'nalishida tahsil oladigan talabanning qanday mas'uliyatlari bor?
17. Jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabasi jurnalist etikasini qachon egallagan bo'lishi kerak?
18. Talabalik odobini bilasizmi?
19. Boshqa yo'nalish talabalariga nisbatan jurnalistika yo'nalishi talabalarining (Talabalik mas'uliyatini bajarish jarayonidagi) farqi nimada?
20. Xalqaro jurnalist faoliyatiga qanday talablar qo'yilishi kerak?
21. Milliy jurnalistika va xalqaro jurnalistika yo'nalishlarining farqini bilasizmi?
22. Sizni jurnalistikada nima qiziqtiradi? Qachondan beri jurnalistika sohasiga qiziqasiz?
23. Ommaviy axborot vositalarining birorta tizimidagi faoliyatni yaqindan kuzatganmisiz? bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
24. O'zbekistonning keyingi yillardagi rivojlanishida jurnalistikaning o'rnini qanday baholaysiz?
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan "Harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?
26. Siyosat bilan jurnalistika o'zaro bog'liqligini qanday baholaysiz?
27. Jurnalist nima uchun tarix va siyosatni yaxshi bilishi kerak?
28. Nima uchun jurnalistikaga "To'rtinchi hokimiyat" ta'rifi beriladi?
29. Jurnalist mas'uliyati deganda nimani tushunasiz?
30. "Erkin va mas'uliyatli jurnalistika" deganda Siz nimani tushunasiz?
31. Siz gazeta o'qiysizmi? Asosan qaysi gazetalarni o'qib turasiz?
32. Jurnal bilan gazetaning farqini bilasizmi?
33. Radio eshitasizmi? Qaysi radiokanallarni bilasiz?
34. Radio bilan televideniening farqini misollar bilan tushuntiring.
35. Sizga qaysi OAV ko'proq yoqadi: gazeta, radio, televideniye yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
36. Radiojurnalistlardan kimlarni taniysiz?
37. Radioning ahamiyatini tushuntirib bera olasizmi?
38. Televideniye boshqa OAV turlaridan farqli tomonlari nimada? Qaysi telekanallar faoliyatini kuzatib borasiz?
39. Telejurnalistlardan kimlarni taniysiz?

40. Internet nima? Internetda yangiliklar tarqatishning qanday imkoniyatlari bor?
41. Internet sayti nima? Internetdagi qaysi saytlarni bilasiz?
42. Internet Ommaviy axborot vositalarining qaysi turiga kiradi?
43. Siz xalqaro jurnalist bo‘lishga tayyormisiz? O‘zi xalqaro jurnalist qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini tasavvur qila olasizmi?
44. Bugungi yoshlarga qanday axborotlar yoqadi? Reklamalarni kim tayyorlaydi?
45. Axborot yig‘ish deganda nimani tushunasiz? Axborot yig‘ishda jurnalist nimalarga e‘tibor qaratishi kerak?
46. Jurnalistik axborot o‘zi nima?
47. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo‘lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsigaga tegadigan bo‘lsa, nima qilasiz? Axborot yig‘ish deganda nimani tushunasiz?
48. Reportaj nima? Reportaj janrini ta’riflab bering.
49. Intervyu nima? Intervyuda kimning fikri o‘rganiladi?
50. Maqola nima? U qanday yoziladi? Siz maqola yozganmisiz?
51. Faktlarni yig‘ish chog‘ida jurnalist faoliyatini chegaralash mumkinmi? Siz bunga nima deysiz?
52. Siz jurnalist faoliyatini mashshaqqatli deb eshitganmisiz? mashaqqatli kasbni qanday tasavvur qilasiz?
53. Jurnalistikada Sizni nima ko‘proq qiziqtiradi: teleekranga chiqishmi, ko‘nglingizdagi gaplarni yozishmi, xalq dardini o‘rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?
54. “Jurnalistning noni qattiq” degan ibora bor. Bunga munosabatingiz qanday?
55. Sizning nazaringizda jurnalist kun tartibi qanday rejalashtirilishi kerak?
56. Sizning nazaringizda jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
57. Bugungi kunda Toshkent shahrida qaysi universitetlarda jurnalist kadrlarni tayyorlovchi yo‘nalishlar bor? Siz nega asosan sharqshunoslik universitetini tanlagansiz?
58. TV orqali uzatiladigan reportajning radio orqali uzatiladigan reportajdan farqi va o‘ziga xosligi nimada? Sizningcha, qaysi biri to‘liqroq ma‘lumot beradi va nima uchun?
59. Jurnalist ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanishi mumkin?
60. Mashhur davlat arbobidan intervyu olish imkoniyati tug‘ilsa qanday 5 ta asosiy savolni bergan bo‘lar edingiz? Agar shunday imkoniyat berilsa aynan qaysi mashhur davlat arboblardan intervyu olgan bo‘lar edingiz?
61. Jurnalistikada vaqtning ahamiyati qanday?
62. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa nimalarni olgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

63. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
64. Televideniya jonli efir deganda nimani tushunasiz?
65. Televideniya jonli efir orqali chiqishning ahamiyati nimada?
66. Jurnalistika kasbi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
67. O'zbekistonda jurnalistlar, muxbirlardan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e'tiboringizni tortadi, yoqadi?
68. Jurnalistikada qat'iy man etiladigan amallar nima?
69. Xalqaro jurnalistikaning bugungi davlat taraqqiyotida qanday o'rin tutadi deb o'ylaysiz?
70. Xalqaro jurnalist asosan nimalarga ko'proq e'tibor berishi kerak?
71. "Jurnalistni oyoqlari boqadi" iborasini izohlang?
72. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz?
73. Qaysi xorijiy OAV ni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni jalb qiladi? Ularning faoliyatida nimalarni o'zgartirishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz?
74. Sizga biror OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishdi deylik. Qaysi turdagi va yo'nalishdagi OAV ni tanlaysiz?
75. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt saflaysiz va qanday maqsadlarda?
76. Kelajakda jurnalist sifatida faoliyat olib bora boshladingiz deylik, bir muddat o'tib sizga oylik maosh bera olmaydigan vaziyatga tushib qolishdi. Siz ishlashda davom etasizmi?
77. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?
78. "Kim?", "nima?", "qayerda?", "qachon?", "nima uchun?" va "qanday qilib?" savollariga javoblarni jamlashtirgan yangilik-sarlavha o'ylab toping.
79. Xalqaro jurnalistikadagi zamonaviy jarayonlarga tushuncha bering?
80. Myedia-biznes deganda nima tushuniladi?
81. Jahon mass-medialarining tizimining voqyelik sifatida ko'rinishi tasavvuringiz?
82. Dunyoning yetakchi telekanallari va xususiyatlari sanab bering?
83. Internet zamonaviy OAV turi sifatida aks etishiga izoh bering?
84. Elektron jurnalistika bozoridagi yangi shakllar?
85. Dunyoning yetakchi telekanallari va radiokannallarni sanab va ularning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib bering?
86. Internet OAVlarining tasniflanish mezonlarini aytib bering?
87. O'zbekistonning xususiy OAV tizimlarini sanab bering?
88. Jurnalist va filolog o'rtasidagi farq to'g'risida Sizing tushunchangiz?
89. Jurnalist faoliyati qaysi sohaga ko'proq yaqin? Sizing tushunchangiz.
90. Jurnalistning boshqa gumanitar sohalar bilan bog'liqligi – Sizing tushunchangiz.

Ijodiy inshoni baholash mezonlari
(ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	10 tadan ortiq orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
3.	Mavzu sayoz ochilgan, abituriyentning fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqur emas, yozma ish mantiqan bo'sh, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha	1-8 ball
4.	Mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta	9-16 ball
5.	Mavzu o'rtacha ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz chalaroq, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta	17-25 ball
6.	Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi bir oz durustroq, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta	26-33 ball
7.	Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning rolga yaxshi baho bera oladi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 2-3 ta	34-42 ball
8.	Mavzu yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatosi 1 ta	43-52 ball
9.	Mavzu teran ochib berilgan, abituriyentning dunyoqarashi chuqur va atroflicha, jurnalistika rolga yaxshi baho bera oladi, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolar yo'q	53-62 ball

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

(ballar miqdori – 0 – 32 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi	0 – 6 ball

	yo‘q, abituriyentning fikrlashi sayoz, OAVda e‘lon qilingan materiallari yo‘q, lekin jurnalist bo‘lish istagi kuchli	
2.	Jurnalistika haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, OAVda e‘lon qilingan 1-3 kichik hajmli material bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistikaga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, OAVni izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e‘lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaga ko‘p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rnini chuqur tushunadi, OAVni yaxshi biladi, ko‘p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, 10-20 ta e‘lon qilgan material bor, xalqaro jurnalistika va milliy va xalqaro OAV faoliyati haqida yetarli tasavvuri bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistikaga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko‘p borgan va redaksiya ishi bilan tanish, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, milliy va halqaro jurnalistika haqida atroflicha tasavvuri bor, milliy va xalqaro jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e‘lon qilgan materiallari 20dan ko‘p	26 - 31 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to‘plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas’ul kotib yoki uning muoviniiga takdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo‘yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o‘zining ijodiy ishi va ballari xususida e‘tiroz bo‘lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ijodiy insho yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o‘tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apyellyasiya qilish jarayonida abituriyentga qo‘shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o‘zgartirish faqat fan bo‘yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta’lim

muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning ogʻzaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta koʻrib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon oʻtkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni koʻrib chiqish tartiblari abituriyentlar eʼtiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Oʻzbekistonning yangi Konstitutsiyasi. — T., “Oʻzbekiston”, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga navbatdagi murojaatnomasi. 2022 yil 22 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. — T., “Oʻzbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T., “Oʻzbekiston”. 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq soʻzi” gazetasi 2023-yil 27-iyun.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qoʻllab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ 294-son Qarori. “Xalq soʻzi” gazetasi. 2022-yil 27-iyun
8. Mirziyoyev. Sh. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtarilamiz. I jild. — T.: Oʻzbekiston, 2017. — 592 b.
9. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II jild. —T.: «Oʻzbekiston» NMIU. 2018. — 508 b.
10. Mirziyoyev. Sh. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. III jild. — T.: «Oʻzbekiston» NMIU. 2019. — 400 b.
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” PQ-4038-son qarori. // <http://www.lex.uz/docs/4084926>.
12. Doʻstmuhammad X. Jurnalist boʻlmoqchimisiz? — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
13. Doʻstmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy metodologik tahlil. — Toshkent: Yangi asr avlodi 2007.
14. Moʻminov F. A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. — T., 1998
15. Moʻminov F.A., Nurmatov A. va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik.— Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

16. Qalamdan qadr topganlar: Maqolalar to‘plami/ Tuzuvchi. D. Ergashev. - Farg‘ona, 2015.
17. Muratova N. “On-line jurnalistika: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. — O‘zJOKU, 2019.
18. Sulaymonov I. Men – jurnalistman (behalovat kasbimiz haqida o‘ylar). – Toshkent: Sharq, 2001
19. Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. – Toshkent, 2005.
20. Rahmatullaev T. Matbuot va demokratiya. SamDChTI, 2002.
21. Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. - Toshkent.: Innovatsiya Ziyo. 2019.
22. Jumanova S. Jurnalistika (abituriyentlar uchun ijodiy imtihon qo‘llanmasi) T.: “Ziyo nashr” MChJ, 2019.
23. To‘xlieva N. Tahrir mahorati. - Toshkent: Bayoz, 2022.
24. Qosimova N., Xidirov Q., Safarov A., Saidov H., Ortiqova Yu., Isomiddinova M. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild. - T.: O‘zbekiston, 2019.
25. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati. - T.: “Fan”, 2019.
26. Audiovizual jurnalistika. VI jild - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
27. Allamberganova P. Audiovizual jurnalistika. (Telejurnalistika asoslari). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent.: Universitet, 2022.
28. Хикматова М . Понятия и слово: сравнительный анализ узбекских, русских, английских терминов и их значений в жанрах журналистики. Монография. Бухара, 2022.
29. Zohidova Y. Televideniye va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o‘rni (ijtimoiy vaziyat, journalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Monografiya. - Toshkent.: Mumtoz so‘z, 2022.